

TASVIRLASHDA PERSPEKTIVA QONUNIDAN TO'G'RI FOYDALANISH

Oltmishev Toxirjon Turgunovich,

A.Qodiriy nomidagi JDPU katta o'qituvchisi, Jizzax, O'zbekiston

e-mail:oltmishevtohir@gmail.com

Annotasiya. Tasvirlanayotgan buyum, ushbu buyum qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga o'zgarib ko'rinishi. Masalan, kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlari perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz. Perspektiva qonunlarini mukammal o'rganib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin. Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, perspektiva, portret, natyurmort, manzara, miniatyura, qalamtasvir.



Annotation: The object being depicted will appear to the artist differently, regardless of the angle from which the object is depicted (from far, close, above, below, straight, or from the edge). For example, by turning the cube in one direction or another, we observe that its sides change in perspective. By thoroughly studying the laws of perspective, it is possible to correctly describe the visible and invisible sides of any object. The main feature of the laws of perspective is that, regardless of the size of objects, the perspective decreases as they move away from the artist and how they are located on the plane.

Keywords: Fine art, perspective, portrait, still life, landscape, miniature, pencil drawing



Аннотация: Изображаемый предмет предстанет перед художником по-разному, независимо от того, под каким углом изображен предмет (далеко, близко, сверху, снизу, прямо или с края). Например, поворачивая куб в ту или иную сторону, мы наблюдаем, как его стороны меняются в перспективе. Тщательно изучив законы перспективы, можно правильно описать видимые и невидимые стороны любого предмета. Главная особенность законов перспективы состоит в том, что независимо от величины предметов перспектива уменьшается по мере их удаления от художника и того, как они расположены на плоскости.

Ключевые слова: зобразительное искусство, перспектива, портрет, натюрморт, пейзаж, миниатюра, карандашный рисунок

Perspektiva qonuni. Tasvirlanayotgan buyum, ushbu buyum qaysi tomonidan tasvirlanishidan qat'iy nazar (uzoqdan, yaqindan, yuqoridan, pastdan, to'g'ridan yoki chekkadan), chizuvchiga o'zgarib ko'rindi.




1-rasm



2-rasm

Masalan, ko'zani yoki kubni u yoki bu tomonga burib, uning tomonlari perspektiv o'zgarib ko'rinishini kuzatamiz (1,2-rasmlar).

3-rasmda temir yo`li relslari, simyog'ochlar va kenglikdagi boshqa shakllarning bizdan uzoqlashgan sari kichrayib, bir nuqtada tutashini ko'rishimiz



mumkin. Hayotda o'zaro parallel bo'lган relslar hech qachon to'qnashmasalar-da, perspektiva qonuniga birioan, ular bizdan uzoqlashgan sari kichrahib, bir nuqtada tutashishini ko'rishimiz mumkin. Bu perspektiva qonuniga asosan sodir bo`ladi.

3-rasm


Buyumlarni tekislikda haqqoniy tasvirlashda rassom perspektiva qonuniga bevosita murojaat qiladi. Bu holatni shunday ta'riflash mumkin: "*Tabiatdagi barcha buyumlar qanday shaklga ega bo'lmasin, perspektiva qonun va qoidalariga bo'ysunadi*".

Perspektiva qonunlarini mukammal o'rganib, har qanday buyumning ko'rinar va ko'rinas tomonlarini to'g'ri tasvirlash mumkin. Perspektiva qonunlarining asosiy xususiyati shundaki, buyumlar qanday kattalikda bo'lmasin, chizuvchidan uzoqlashgan sari va tekislikda qanday joylashganiga qarab perspektiv qisqaradi.

O'z navbatida, perspektiva qonuni haqqoniy tasvirlash "alifbo"laridan bo'lgan "*surat tekisligi*", "*buyum tekisligi*", "*ko'rish maydoni*", "*ko'rish nuqtasi*", "*ufq chizig'i*" kabi qonuniyatlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Surat tekisligi deb tasvirlanayotgan natyurmort, manzara, portret va hokazolar bilan rassbm orasidagi bo'shliqqa aytildi.

Fiziologik nuqtai nazardan qaraganda, yorug'lik chizilayotgan buyumga tushganda, rassomga buyumning u yoki bu qismi ko'rindi. Shundan keyingina rassom uni idrok etib, tasvirlashga o'tadi. **Surat tekisligi** rassom bilan natura o'rtasida vosita bo'lib xizmat qiladi (4-rasm).



4-rasm

Buyum tekisligi deb tasvirlanayotgan buyum joylashgan tekislikka aytildi. Stol, pol, yer va boshqa chizish uchun bajariladigan moslama buyum tekisligi

vazifasini o'tashi mumkin.¹ Perspektiva qonuni tasviriy san'atning barcha janrlarida badiiy asarlar yarishda asosiy vazifani bajaradi. Aytaylik, Kamoliddin Behzod yaratgan miniatyura asarlari o'z jozibasi va maftunkorligi bilan tomoshabinni o'ziga rom etadi ,lekin shunga qaramay bu asarlarda perspektiva qonunlarini ko'rmaysiz. Bu yerda barcha odam gavdasi va tabiat manzaralari bir tekislikda yotadi (5-rasm).



5-rasm

Perspektiva qonunlari asosida tasvirlanganda biz tabiat manzarasi yoki portret bo'lzin aniq ko'ramiz. Zero perspektiva degani aniq ko'raman degan ma'noni anglatadi.

Foydalanimgan adabiyotlar ro'yxati

¹ Botir boymetov. Qalamtasvir-Musiqa nashryoti-Toshkent 2006.26-30 betlar

1. Botir Boymetov. Qalamtasvir-Musiqa nashryoti-Toshkent 2006.
2. Барщ А.О. Наброски и зарисовки. М., 1970.
3. Ростовцев Н.А. Академический рисунок. М. 1984.
4. Internet manbasi. <https://gigafox.ru/uz/rody/grafit-vidy-grafitovyh-karandashei-kakie-byvayut-karandashi-dlya-risovaniya/>.